

**VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILGAN QOTILLIK JINOYATLARINI
TERGOV QILISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13912387>

Mehmonov Hikmatulla Ziyodullayevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil-izlanuvchisi

Аннотация; Мазкур мақолада вояга етмаган шахслар томонидан содир этилган қотиллик жиноятининг умумий криминоген тавсифи баён этилади. Шунингдек, жиноятнинг келиб чиқиши сабаблари ва таъсир кўрсатувчи омиллар очиб берилади.

Калит сўзлари: жиноят, қотиллик, вояга етмаганлар, криминалистика, таҳдиidlар, инсон ҳаёти, яаш ҳуқуқи, инсон ҳуқуқлари, суиқасд қилиш, шахсий дахлизизлик, қонун, болалар, ўсмирлар, зўровонлик.

Аннотация. В данной статье дана общая криминогенная характеристика преступления убийства, совершенного несовершеннолетними. Также раскрываются причины и факторы, влияющие на совершение преступления.

Ключевые слова: преступление, убийство, несовершеннолетние, судебно-медицинская экспертиза, угрозы, жизнь человека, право на жизнь, права человека, убийство, неприкосновенность частной жизни, закон, дети, подростки, насилие.

Abstract. This article describes the general criminogenic description of the crime of murder committed by minors. Also, the causes and influencing factors of the crime are revealed.

Keywords: crime, murder, minors, forensics, threats, human life, right to life, human rights, assassination, privacy, law, children, teenagers, violence.

Globallashuv davrida inson hayotiga tahdid ortib bormoqda. Uni tahqirlash, erkin yashashiga, mustaqil hayotiga aralashish va zo'rovonlik qilish holatlari kun sayin ko'paymoqda. Ayniqsa, hali hayotning mazmunini anglab yetmagan murg'ak bolalar va o'smirlar tomonidan jinoyatlarni sodir etilayotgani achinarli axvoldir. Ular ayni vaqtida bilim olish, kasb egallah bilan band bo'lishi kerakligini ota va ona bilsada, loqaydlik qilib jinoyatlarning ortishiga turtki bo'lmoqda. Zero, yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi va u qonun bilan muhofaza qilinishi hamda inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekani, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanishini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida qat'iy belgilab qo'yilgan. Hech bir insonning erkin yashashiga to'sqinlik qilish mumkin emas. Bunday huquqdan mahrum qilganga jinoyat qonunchiligidagi jazo muqarrardir.

Bu borada, Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yil 10 dekabr kuni qabul qilingan "Inson huquqlari Butunjahon dekloratsiyasi"ning 3-

moddasida ham “har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega” ekanligi ko’rsatib o’tilgan. Haqiqatdan ham nafaqat mamlakatimiz qonunchiligidagi, balki umumjahon qonun normalarida har bir insonning yashash huquqi erkin va daxlsiz ekanini asoslab qo’yilgan. Inson hayotiga va sog’lig’iga zo’ravonlik qilish mumkin emasligi hamda zo’ravonlik uchun huquqiy choralar ko’rilishi qat’iy belgilangan.

Zo’rlashning eng xavfli ko’rinishlaridan biri bu qotillik jinoyatidir. Qotillikning ijtimoiy xavfliligi uning jinoyat olamida nafaqat keng tarqalganligi, balki og’irligi, jamiyat va uning a’zolariga qabul qilib bo’lmas darajada ta’sir ko’rsatishi bilan farqlanadi. Sodir etilgan har bir qotillik odamlarning ruhiyatida qo’rquv, nafrat, yovuzlik kabi tuyg’ularini qo’zg’olishiga turtki bo’ladi. Bu esa inson salomatligiga jiddiy ziyon yetkazadi.

Mamlakatimizda so’nggi o’n yillikda sodir etilayotgan qotillik jinoyatlari boshqa zo’rlash bilan bog’liq jinoyatlar kabi yangi islohotlarni o’zining ichiga qamrab olmoqda. Jumladan, uning asosiy qismi guruhlar tomonidan, asosan uyushgan guruhlar tomonidan, qurollardan foydalilanilgan holda sodir etilmoqda.

Zamonaviy jinoyatchilikning xarakterli belgilaridan yana biri bo’lib, mazkur turdagilarning “yosharishi” kuzatilayotganligidir. Bu esa, qotillik jinoyatlarini voyaga yetmagan shaxslar sodir etayotganligini taqozo etadi. Ya’ni, dunyo axborot olamida ham bolalar va o’smirlar tomonidan qotillikka qo’l urayotgani ko’p tarqamoqda. Masalan, Butunjahon sog’liqni saqlash tashkiloti Yevropa hududiy byurosi o’zining “O’spirinlar va yoshlar tomonidan sovuq qurol bilan sodir etilgan zo’rlik va jinoyatlar haqida ogohlantirish”⁵⁴ mavzusidagi ma’ruzasida 2017 yilda Yevropa xalqlari orasida voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan qotillik jinoyatlari bo’yicha birinchi o’rinni egallaganligi haqida axborot berilgan.

Bu borada respublikamizda ham voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan qotillik jinoyatlarini soni oshib borayotgani tashvishga solayotgani va unga keskin chora-tadbirlar belgilanishi zarurligini taqozo qilmoqda. Zero, mazkur jinoyatlarga qarshi kurashishdan birdan bir manbai bu uning oldini olish usullarini tezkor qo’llash amaliyotini kuchaytirishdir.

So’nggi yillarda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni tergov qilish metodikasining jadal rivojlanishi jinoiy faoliyatning tashkiliy tuzilishi va mexanizmidagi sezilarli o’zgarishlar bilan bog’liq. Yangidan yangi iqtisodiy munosabatlarning vujudga kelishi va mavjudlarining o’zgarishi, huquqni muxofaza qiluvchi organlarning faoliyatini belgilovchi qonunchilikdagi o’zgarishlar voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishning yangi metodikasini ishlab chiqish, mavjudlarini esa takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish metodikasini yangilash va mavjudlarini takomillashtirish bilan bir qatorda, kriminalistikaning nazariy asoslari ham keng rivojlanmoqda va takomillashmoqda.

⁵⁴ URL: <http://www.Lenta.ru>. 9 августа 2011 г..

Kriminalistika fanining sezilarli darajada rivojlanganligi voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda samarali metodlar jalg qilinayotganlikda namoyon bo'ladi. Zero, yangidan yangi tergov qilish metodikasini tadbiq etish va mavjudularini takomillashtirish zarurati O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksining amaliyotga joriy etilganligi, normativ-huquqiy bazadagi ayrim o'zgarishlar hamda zamonaviy jinoyatchilikdagi yangi va yanada xavfli ko'rinish olganligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur maqolada voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan qotillik jinoyatining umumiy kriminogen tavsifi bayon etiladi. Ushbu kategoriyadagi jinoyatlarni tergov qilishning o'ziga xosligi ajralib turadi. Dastlabki tergov to'laqonli olib borilishini ta'minlash maqsadida aynan bir jinoyatni sodir etilishining o'ziga xosligini hisobga olish kerak. Nazarimizda, o'ziga xos kategoriyadagi jinoyatlardan biri hisoblangan qotillik jinoyatiga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Qotillik jinoyati o'ta og'ir jinoyat hisoblanib, buning uchun milliy qonunchiligidan yetarli darajada qattiq jazo chorasi nazarda tutilgan. Biroq, shunday jinoyat voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, uni tergov qilishga yuqori darajadagi e'tibor bilan qarash lozim.

Ichki ishlar vazirligi 2023 yil taqdim etgan ma'lumotga ko'ra, voyaga yetmaganlar orasida, afsuski, qotillik, og'ir tan jarohati yetkazish, nomusga tegish, bosqinchilik, talonchilik, bezorilik, o'g'rilik, giyohvand moddalar iste'mol qilish yoki sotish bilan bog'liq og'ir jinoyatlar ko'p uchramoqda. Statistikaga ko'ra, respublikada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 2019 yilda 938 tani, 2020 yilda 739 tani, 2021 yilning birinchi yarmida 338⁵⁵ tani tashkil etgan. Tahlil qilib ko'rliganda qotillik jinoyatlari uchun hukm qilinganlarning aksariyati oilasida nosog'lom muhitda tarbiya topgan bo'lib chiqmoqda. Ularning 20 foizga yaqini ota-onasiz, uchdan bir qismi to'liqsiz oilada (ota yoki onasiz) o'sganligini ma'lum qilindi.

Qotillik jinoyatini voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgani o'zga jinoyatlarga nisbatan har doim ham bo'lavermagan. Aynan shuning uchun ham bu turdagji jinoyatlarni o'ta sinchkovlik bilan tergov qilish lozim, chunki bu turdagji jinoyatlarning sodir etilishi yosh kategoriyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining kriminogen holati ma'lumotlariga xos emas.

Mamlakatimizda barcha sohada bo'lgani kabi sud-huquq sohasida ham amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimiz farovonligini ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan texnika, texnologiya va internet tarmogi'i tizimidagi ba'zi buzg'unchi g'oyalardan foydalanib unga taqlid qilayotgan, ongi to'liq rivojlanmagan voyaga yetmagan shaxslarning qotillik kabi o'ta og'ir jinoyatlar sodir etishga qo'l urayotganliklari to'g'risida yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni hali qoniqarli deb hisoblab bo'lmaydi.

⁵⁵ <https://tergov.uz/uploads/wanted/536c38a24c20a2981c1986cf4e8371d1.pdf>

Tergovchining amaliy faoliyatida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan qotillik jinoyatini tergov qilishda qonuniylik va odillik tergov jarayonini asosiy prinsipi hisoblanadi.

Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan qotillik jinoyatini tergov qilishning qonuniyligini ochib beruvchi huquqiy, tashkiliy va taktik savollar tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan qotillik jinoyatini tergov qilishning dastlabki bosqichida metodlarni kompleks tadqiq etish va ularni takomillashtirish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

Ish jarayonida qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, quyidagi topshiriqlarni amalga oshirish lozim:

- voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan qotillik jinoyatlari bo'yicha jinoyat ishidagi aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni belgilab olish;
- ushbu kategoriyadagi jinoyatlarning kriminalistik xarakteristikasini tahlil qilish;
- voyaga yetmaganlar tomonidan qasddan sodir etilgan qotillik jinoyatlari bo'yicha tergov vaziyatlarini ko'rib chiqish;
- ilgari surilgan tusmollarni tekshirishda tergov va tashkilotchilik rejalarini tavsiflash;
- voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan qotillik jinoyatini tergov qilishning birinchi bosqichida amalga oshirilayotgan taktik operatsiyalarni aniqlash;
- gumon qilinuvchi, ayblanuvchini so'roq qilish taktikasini ochish;
- ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tartibini tahlil qilish;
- voyaga yetmagan shaxslar tomonidan qasddan sodir etilgan qotillik jinoyatini tergov qilishda maxsus bilimlarni qo'llash tartibini tavsiflash.

Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan turlicha motiv va usullarda sodir etilgan jinoiy faoliyatni o'rghanish ushbu turli ko'rinishdagi jinoyatning kriminalistik tavsifini ishlab chiqishda amaliy rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 60-bobida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishning umumiyligi tartibi belgilab berilgan.

Masalan, ayrim modda bilan dastlabki tergovning birinchi bosqichida isbot qilinishi va aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar alohida ko'rsatib o'tilgan. Umumiyligida, ayblanuvchining aniq yoshi (tug'ilgan yili, oyi, kuni), voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar va uning salomatlik holati (psixik holati va boshqalar), uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari hamda katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi, unga ta'sir ko'rsata olishi yoki olmasligini aniqlash lozim.

Voyaga yetmagan ayblanuvchining shaxsini o'rghanish asoslari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- jinoyat sodir etilishida uning roli, aybning va javobgarlikning darajasini aniqlash;
- u yoki bu tezkor – qidiruv tadbirlarini, tergov harakatlarini va ekspertizani o'tkazish masalasini hal etish;
- jinoyatning sodir etilishiga imkon bergen shart-sharoitlarni aniqlash;

- o'spirinning axloqan tuzalishiga ta'sir ko'rsatish va boshqa profilaktik ishlarni belgilab olish.

Qonuniy vakilning ishda ishtirok etishiga surishtiruvchi yoki prokurorning qarori bo'yicha voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so'roq qilish paytidan boshlab yo'l qo'yiladi, qonuniy vakilga O'zbekiston Respublikasi JKning 61-moddasida ko'rsatilgan huquqlar tushuntiriladi⁵⁶.

Shuni unutmaslik kerakki, birlamchi tergov harakatlarini olib borish jarayonida, voyaga yetmaganga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslarni aniqlash lozim. Ushbu holatni aniqlash shunchalik muhimki, voyaga yetmaganni so'roq qilish jarayonida qonuniy vakilning ishtirok etish huquqi mavjud bo'lib, biroq sud-huquq amaliyotida aynan qonuniy vakillar voyaga yetmagan shaxsga jinoyat sodir etishga majburlovchi bosim o'tkazganlik holatlari ham uchragan. Bu esa, shu kabi shaxslarning tergov harakatlarida ishtirok etishi tergov harakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, aynan biror-bir jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga monelik qiladi.

Bu kabi vaziyatlarda, qonuniy vakil o'z harakati bilan voyaga yetmagan shaxsning manfaatiga zarar yetkazadi deb hisoblash uchun asos bo'lsa, surishtiruvchi, tergovchining qarori yoki sudning ajrimi bilan voyaga yetmaganning qonuniy vakili ishda qatnashishdan chetlashtirilishi mumkin. Bunday holda voyaga yetmagan shaxsning manfaatlarini himoya qilish boshqa qonuniy vakilga yoki vasiylik va xomiylik organining vakiliga topshiriladi⁵⁷.

O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligidagi, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida so'roq qilishdan boshlab surishtiruvchi yoki tergovchi ishda himoyachining ishtirok etishini ta'minlash choralarini ko'rishi lozim, shu maqsadda voyaga yetmagan va uning qonuniy vakiliga o'zлari xohlagan himoyachini taklif etish huquqiga ega ekanliklari tushuntiriladi. Agar himoyachi voyaga yetmagan shaxsning, uning qonuniy vakilining yoki boshqa shaxslarning topshirig'i yoki roziligi bilan chaqirilmagan bo'lsa, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ishda himoyachi ishtirok etishini o'z tashabbusi bilan ta'minlashga majbur⁵⁸.

Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining shaxsini chuqurroq o'rghanish maqsadida tergovchi yoki prokuror ixtiyoriga ko'ra pedagog yoki psixolog ishtirokini ta'minlashi mumkin. U tergovchining ruhsati bilan ayblanuvchiga savollar berishga, so'roq tugaganidan so'ng esa, so'roq bayonnomasi bilan tanishib, bayonnomadagi yozuvlarning to'g'riliği va mukammalligi haqida o'z fikrlarini yozma ravishda berishga haqlidir.

Biroq, rossiyalik olimlar Rossiya Federatsiyasining jinoiy protsessual qonunchiligi 420-moddasi uchinchi qismiga "Voyaga yetmaganlar bilan bog'liq dastlabki tergovni va boshqa protsessual harakatlarni bajarishni tashkil etish chog'ida surishtiruvchi, tergovchi va prokuror voyaga yetmaganning shaxsini o'rghanish, u bilan aloqa o'rnatish, voyaga

⁵⁶ Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 549-моддаси 2-қисми

⁵⁷ Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 549-моддаси 3-қисми

⁵⁸ Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодексининг 550-моддаси

yetmaganga berilishi lozim bo'lgan savollarni tuzish, uning ko'rsatuvlarini qayd etish, shuningdek voyaga yetmaganning psixologik shaxsiyati bilan bog'liq boshqa ijtimoiy savollarni yechish maqsadida shaxsiy tashabbusi bilan ushbu harakatlarda ishtirok etish uchun psixolog yoki pedagogi jalb etishi mumkin"⁵⁹, degan taklifni ilgari surgan.

Shu kabi takliflar jinoiy – protsessual qonunchilikda qabul qilinishi voyaga yetmagan jinoyatchilar bilan yaxshi aloqa o'rnatish, voyaga yetmaganning ruhiy holatini har tomonlama o'rganish, ushbu turdag'i jinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirishda qo'l keladi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 17-moddasida qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlik 14 yosh etib, og'irlashtiruvchi holatlarda esa 13 yosh etib belgilangan. Rossiya Federatsiyasi JKning 20-moddasida jinoiy javobgarlik yoshi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unda umumiyl jinoiy javobgarlikka tortish yoshi etib 16 yosh, aynan qasddan odam o'ltirganlik uchun esa javobgarlikka tortish 14 yosh etib belgilangan. Bunda Rossiya Federatsiyasi qonun chiqaruvchi organi og'irlashtiruvchi holat uchun alohida urg'u bermagan hamda qasddan odam o'ldirganlik uchun har qanday holatda yagona yosh etib 14 yosh ko'rsatilgan.⁶⁰

Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilayotgan qotillik jinoyatlarini tergov qilishda jarohat yetkazuvchining qasdi odam o'ldirishga qaratilganligi yoki qasddan badanga shikast yetkazishga qaratilganligini farqlash lozim. Qotillik jinoyatlariga huquqiy baho berishda, barcha holatlarning to'liq va har tomonlama tekshirilishini ta'minlashda xodimlarga qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Xatolarga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, qotillikka oid jinoyat ishlari bo'yicha o'tkaziladigan tergov sifatini oshirish uchun tergovchilardan qotillik jinoyatiga oid bilimlarini oshirishlari, avvalo holatga inson uning hayoti masalasi yotganligi nuqtai nazaridan yondashish, Oliy sud plenumining tegishli qarorlari va talablarini o'rganib borishlari, bu turdag'i jinoyatlarga oid ilmiy va amaliy materiallarni doimiy ravishda kuzatib, o'rganib borishlari, qotillikka oid ishlarni tergov qilish amaliyotidagi muammolarga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda davra suhbatlarida ishtirok etishlari talab qilinib, tergov organlarida aynan bu turdag'i jinoyatlarni tergov qilishga ixtisoslashuvni yo'lga qo'yish kerak bo'ladi.

Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan qotillik jinoyatlarini tergov qilish jarayonida, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatiga va hodisa sodir bo'lgan joyda aniqlangan dalillarga alohida yondashib, tergov harakatini JPKning talablari asosida o'tkazib, har bir dalilning bayonnomada aks ettirgan holda olinishi hamda kelgusida ekspert tekshiruvi jarayonida muammolar yuzaga kelmasligi uchun qog'oz xaltalarga(konvert) joylashtirilishi, ishtirokchilar tomonidan tasdiqlanib muhrlanishini qat'iy nazorat qilish lozim. Tergov harakatlari davomida ish bo'yicha tayinlangan sudga oid

⁵⁹ Дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.09/ Кошелева И.С. – Саратов, 2006.-C.45

⁶⁰ Россия Федерацияси ЖКнинг 20 мoddası

ekspertiza tekshiruvlarining borish jarayonini nazoratga olib, xulosalarning ilmiy asoslanganligini tahlil qilish hamda kelgusida dalil sifatida e'tirof etish lozim.

Jinoyat ishi bo'yicha ashyoviy dalillarning o'z vaqtida o'rnatilgan tartibda olinmasligi, dalilni biror quti yoki xaltaga joylashtirib, uni muhrlab, ashyoviy dalillarni saqlash xonalarida saqlamasligi, hamda holatga e'tiborsiz yondashishi natijasida jinoyatni issiq izidan ochilmasligi, jinoyat uchun javobgarlik mezonlarining buzilishi va shunga o'xhash boshqa bir nechta muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Jumladan, 2018 yil 11 yanvar kuni Toshkent viloyati Olmaliq shahrida voyaga yetmagan H.K.ga nisbatan voyaga yetmagan aka-uka N.A. va N.O.lar tomonidan sodir etilgan qotillik jinoyati bo'yicha hodisa joyiga chiqqan tergovchi tomonidan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish davomida murda boshining tagida qonga o'xhash dog'lari bo'lgan oq rangli choyshab borligi aniqlanganligi qayd etilgan bo'sada, ushbu choyshab olinganligi qayd etilmagan, ushbu choyshab alohida bayonnomaga bilan ham olinmagan. Hodisa sodir bo'lgan joyda aniqlangan ashyoviy dalil hisoblangan choyshab tegishli tartibda quti yoki xaltaga solib muhrlanmaganligi oqibatida yo'qolgan. Bu esa jinoyatni issiq izidan ochishga, jinoyat uchun jazo muqarrarligi pirinsiplariga to'sqinlik qilib, jinoyat ishi tergovining yakuni bo'yicha aybdor shaxslar aniqlanmaganligi uchun JPKning 364-moddasi 1-qismi 1-bandiga asosan harakatdan to'xtatilishiga asos bo'lgan.

Mazkur jinoyat ishi vazirlik Tergov departamenti ish yurituviga qabul qilinganidan so'ng, qayta komission sud-tibbiy ekspertizasi tayinlash zarurati yuzaga kelganligi sababli murda eksgumatsiya qilinib, ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olingan. Qayta komission

sud-tibbiyot ekspertiza xulosasiga ko'ra marhum H.K.ning o'limi mexanik asfiksiya natijasida, og'iz va burun orqali nafas olish yo'llarini qattiq to'mtoq jism bilan berkitish ta'sirida, bo'yin sohasini ham qattiq to'mtoq jism bilan bo'g'ish oqibatida yuz bergenligi aniqlangan.

Tergov harakatlari davomida gumonlanuvchi N.A. o'z ko'rsatmalarida marhum H.K. jasadi topilgan chuqurlikdan, chuqurlik atrofidan o'tuvchi, azbes qoplamali quvur ustidan yugurib o'tayotganda, ehtiyoitsizligi natijasida chuqur ichiga yiqilib tushganligini, chuqurlikdan qayta chiqa olmaganligini, hattoki u ko'rsatgan yordami natijasida ham chuqurlikdan chiqa olmaganligini, chuqurlik ichida tuni bilan qolib ketib, sovuqqa qotishi natijasida vafot etganligini ko'rsatib o'tgan.

Shunga ko'ra, Olmaliq shahridagi o'rta ta'lim maktablarining biridan ikki nafar marhum bilan bir xil yosh va gavdaga ega bo'lgan o'quvchilar tergov harakatlariga jalb etilib, o'tkazilgan eksperiment tergov harakatlari davomida ularning har ikkalasi ham, qo'shimcha yordamlarsiz, mustaqil ravishda o'sha chuqurlikdan chiqib, ularni yoshidagi o'spirin bunday chuqurlikdan bemalol chiqib keta olishi mumkinligi eksperimentda aniqlangan va bu holat marhum H.K.ning murdasi vafot etgandan keyin, o'sha chuqurlikka olib kelib tashlanganligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jarayonida olingen marhum H.K.ning oyoq kiyimlari bo'yicha mikro zarralar ekspertizasi tayinlangan bo'lib, ekspertizaga hodisa joyidagi "azbest" qoplamali quvurning azbest o'ramidan namunalar taqdim etilib, oyoq kiyimda shunday zarralar bor yoki yo'qligini aniqlash yuzasidan savollar qo'yilgan. Ekspertiza xulosasida marhum H.K.ning oyog'ida bo'lgan krassovkada azbes zarrachalari mavjud emasligi aniqlangan, bu marhum H.K.ni hodisa joyidagi "azbest" qoplamali quvur ustida harakatlanmaganligini anglatadi.

Qolaversa ish bo'yicha o'tkazilgan sudga oid qayta komissiyaviy ekspertizaning xulosasida marhum H.K.ning oyog'ida aniqlangan jarohat o'limdan keyin sodir bo'lganligi aniqlangan.



Tergov harakatlari davomida marhum H.K. ish bo'yicha ayblanuvchilarning yashash manzilida o'ldirilgan degan tusmol yuzaga kelganligi sababli, tungi vaqtida ayblanuvchilarning yashash manzili perekis vodorodli aralashma bilan ishlov berilib, qayta ko'zdan kechirildi. Shu jarayonda ayblanuvchilar yashash manzilidagi xonalardan birida joylashgan kresloda qonga o'xshash dog'lar mavjudligi aniqlandi.

Ish bo'yicha ayblanuvchi N.O. o'z ko'rsatmalarida marhum H.K.onasiga oxirgi marotaba qo'ng'iroq qilgan telefon raqam uning foydalanuvida bo'lganligini, u hodisa sodir bo'lgan hududga bormaganligini ko'rsatib o'tganligi sababli, "Ucell" uyali aloqa kompaniyasidan ikki nafar xodim mutaxassis sifatida ishda ishtirok etishga jalb etilib, mutaxassislar tomonidan hodisa sodir bo'lgan joyga borilib, turli telefon raqamlardan qo'ng'iroqlar amalga oshirilib, hodisa sodir bo'lgan hudud atrofidagi antenalar joylashuv nuqtalari va antenalar qo'ng'iroqlarni qabul qilish yo'nalishlari aniqlanib, ayblanuvchi N.O. jinoyat sodir bo'lgan kuni hodisa joyiga kelganligi va uning harakatlanish yo'nalishi aniqlanib, N.O.ning hodisa joyidan harakatlanish yo'nalishi chizmasi tayyorlab berilgan.

Marhum H.K.ning tanasida aniqlangan jarohatlar yiqilib olishga xos emasligi jihatli bilan tergov organida shubha uyg'otganligi sababli, jinoyat ishiga fizika fanlari professori va shifokor travmotolog mutaxassis sifatida jalb etilib, ular jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishtirilib, hodisa sodir bo'lgan joyni o'rganib chiqishgach, mutaxassis fizik marhumning bo'yi balandligidagi normal shaxsning harakatlanish tezligiga qarab, yiqilish trayektoriyasini tegishli formulalar yordamida, ilmiy asoslangan tarzda sxema shaklida chizib bergen.

Chizmaga ko'ra marhum eng sekin tezlikdagi yugurish jarayonida bexosdan yiqilgan taqdirda, murdasi topilgan joyga yiqilmasligini ko'rsatib bergen. Aynan shu chizmaga asosan shifokor travmatolog hodisa sodir bo'lgan joyni qo'shimcha o'rganib chiqib, agar marhum jasadi topilgan chuqurlikka yiqilib tushganda, chuqurlik atrofida bo'lgan shoxshabbaga va boshqa jismlarga urilishi natijasida marhumga nisbatan og'ir tan jarohati yetishi mumkinligi yuzasidan o'z fikrlarini ilmiy asoslantirilgan tarzda bildirib o'tgan.

Jinoyat ishi bo'yicha marhum H.K.ning foydalanuvida bo'lgan uyali telefon apparatini topish yuzasidan barcha uyali aloqa kompaniyalariga so'rovnomalar berilib, so'rovnama natijalariga ko'ra uyali telefon apparatidan fuqaro voyaga yetmagan D.N. foydalanayotganligini aniqlab undan telefon apparati bayonnomaga orqali hujjatlashtirib olingan. Fuqaro D.N. qonuniy vakili ishtirokida guvoh tariqasida so'roq qilinganida, mazkur telefon apparatini sinfdoshi, ish bo'yicha ayblanuvchi N.O. dan sotib olganligini ko'rsatgan. O'tkazilgan yuzlashtirish tergov harakati davomida ayblanuvchi N.O. haqiqatdan ham javobgarlikdan qutilish maqsadida uyali telefon apparatini sinfdoshi D.N.ga sotganligini aytib o'tgan. Mazkur telefon apparati marhumning yaqin qarindoshlariga tanib olish uchun taqdim etilganda, ular telefon apparatini tanib olganlar.



Aynan mazkur jinoyat ishi yakuni bo'yicha ayblanuvchilar voyaga yetmagan aka-uka N.A. va N.O.larga O'zbekiston Respublikasi JKning 164-moddasi 2-qismi "b" bandi va 97-moddasi 2-qismi "i,p" bandlari bilan ayb e'lon qilib, jinoyat ishi ayblov xulosasini tasdiqlash va tegishli sudlovga yuborish masalasini hal etish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasiga yuborilgan. Hozirda mazkur jinoyat ishi yuzasidan sud tergovi davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi bo'lib, unga tajovuz qilish eng og'ir jinoyat ekanligi, aybdorning o'zi yoki boshqa shaxslar uchun moddiy naf ko'rish yoki moddiy xarajatlardan qutulish maqsadida qasddan odam o'ldirishi ta'magirlik niyatida sodir etilgan jinoyat sifatida, ya'ni JKning

97-moddasi 2-qismi "i" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi, bosqinchilik, tovlamachilik bilan bog'liq holda qasddan odam o'ldirish harakatlari JKning 97-moddasi ikkinchi qismining "i" bandi hamda Jinoyat kodeksining bosqinchilik va tovlamachilik uchun

javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi, bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan qasddan odam o'ldirish jinoyatini JKning 97-moddasi 2-qismining "p" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi, jabrlanuvchiga nisbatan zo'rlik ishlatib, uni hayotdan mahrum qilish jarayonida bevosita ishtirok etgan ikki yoki undan ortiq shaxsning harakatlari JK 97-moddasi ikkinchi qismining "p" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi, bunda o'limga sabab bo'lgan shikast ishtirokchilarning har biri tomonidan yetkazilgan bo'lishi shart emasligi qayd etilgan.

Voyaga yetmagan shaxslarga katta haq evaziga jinoyat sodir etishga motiv berilgan holatlar ham tez-tez uchrab turadi, bu esa javobgarlikni kamaytiruvchi holatlar hisoblanadi. Shu sababli voyaga yetmagan ayblanuvchining jinoyatni sodir etishiga "turki" bergen motivlarni aniqlash juda muhim. Agarda, tergovchi uchun voyaga yetmagan shaxs tomonidan ilgari surilgan motiv ishonchsizlikni keltirib chiqargan bo'lsa, bunday hollarda tergov eksperimentini o'tkazish lozim.

Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan qotillik jinoyati bilan bog'liq jinoyat ishlari o'rganilganda, tahlillar ko'pchilik hollarda, voyaga yetmagan shaxsning o'zi bilmagan, o'zi tomonidan sodir etilayotgan qilmishning oxiri nima bilan tugashini anglamagan holda sodir etayotganligini, bundan tashqari ayrim holatlarda jabrlanuvchi shaxsni tartibga chaqirib qo'yish jarayonida juda kuchli ruhiy hayajonlanish va emotsiyaga berilish oqibatida sodir etilayotganligini kuzatilgan. Shu sababli, tergov qilish jarayonida sudga oid psixiatrik va psixologik ekspertizani o'tkazish lozim, bu esa voyaga yetmagan shaxs tomonidan mustaqil ravishda qotillik jinoyatini sodir eta olganlik holatini aniqlash imkonini beradi, shuningdek uning jinoyatni sodir etishga aloqador jinoiy guruhdagi o'rnini belgilab beradi.



Bundan tashqari, jinoiy qonunchilik-voyaga yetmagan shaxsning ijtimoiy xavfli harakatlarini tushunib yetishiga va psixiatrik hamda ijtimoiy-pedagogik tartibda boshqara olganlik holatini bog'lab berganligi sababli, shuningdek psixolog va psixiatrlar voyaga yetmagan shaxsning psixik holatiga umumiyligini qarash bilan yondashmasligini inobatga olib, jinoyatni tergov qilishni rejalshtirishda hamda keyingi harakatlarni amalga oshirishni belgilab olishda dastlabki tergovning erta bosqichida sudga oid psixologik va psixiatrik kompleks ekspertizasini tayinlash maqsadga muvofiq.

Huquqshunoslar orasida shunday fikrlar mavjudki, ushbu turdag'i jinoyatlarni tergov qilishni rejalashtirish mobaynida ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatini o'tkazish maqsadga muvofiq emas, chunki aynan shu tergov harakatini o'tkazish jarayonida, voyaga yetmagan shaxsga bosim o'tkazilishi, yo'naltiruvchi savollar berilishi yoki gap o'rgatib turilishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilayotgan aksariyat jinoyatlar avvalo ota-onas, mahalla va ta'lif muassasa mutasaddilari tomonidan yoshlarga yetaricha to'g'ri ta'lif va tarbiya berilmayotgani, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ularni ko'proq kitob o'qishga qiziqtirilmayotgani, yoshlarga beparvo munosabatda bo'lib, ularning qanday ishlar bilan mashg'ul ekanklari nazoratga olinmaganligi, ayniqsa jahon internet tarmog'idan har doim ham ijobiy maqsadlarda foydalanmasdan undagi mentalitetimizga yod bo'lgan, qolaversa yoshlar ongi va tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi keraksiz ma'lumotlardan foydalanib ko'p vaqtlarini sarflab kelayotganliklarini kuzatishimiz mumkin. Bu esa yoshlarga salbiy ta'sir etmasdan qolmayapti va yoshlar ongida yuzaga kelgan bo'shliq natijasida ular jinoyat sodir etish yo'liga kirib, oson pul topish yo'llarini izlashmoqda.

Zero, buyuk ajdodimiz Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yohud axloq" nomli asarida "tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat" deb bejizga ta'kidlamagan.

Ushbu turdag'i jinoyatlarni tergov qilish jarayonida unga alohida e'tibor qaratishni davom ettirish kerak, chunki jinoiy-protsessual qonunchilik doim to'ldirib borishni nazarda tutadi. Shu sababli tergov harakatlarini o'tkazish davomida turli darajadagi psixologlarni jinoyat ishiga jalb qilib borish lozim, chunki ular jinoyatning chinakam holatlarni samarali fosh etib berishda qo'l keladi. Ayni shu sohaga katta e'tibor qaratilmoqda, buni hozirgi kunda har bir bilim maskanida psixolog ishchi o'rni tashkil etilganligida ham ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki voyaga yetmagan shaxs deganda tergov va surishtiruv olib borilayotgan vaqtida, jinoyat sodir etilgan vaqtida 18 yoshga to'limagan shaxs tushuniladi. Voyaga yetgan shaxslardan farqli o'laroq dastlabki tergov harakatlari va sud muhokamasi davrida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar quyidagilardan iborat:

- voyaga yetmagan ayblanuvchining aniq yoshi;
- voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar va uning salomatligi holati;
- uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;
- katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi.

Shuningdek voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishni yuritishda qonuniy vakilning qatnashishi shart. Voyaga yetgan shaxslarni so'roq qilish uchun ketgan umumiyl vaqt kun davomida 8 soatdan oshmasligi belgilangan bo'lsa, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan bu jarayon 6 soat etib belgilangan. Voyaga yetmaganlar

bilan tergov harakatlarini olib borishning o'ziga xos jihatlaridan yana biri bu tergov harakatlari davomida tergovchi tomonidan pedagog yoki psixologni jalb etib, ularni yordamida jinoyatni holatini aniqlash mumkinligidadir. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini himoyachi ishtirokisiz so'roq qilish mumkin emas. Jinoyat ishi yakunida tergovchi voyaga yetmagan ayblanuvchiga uning shaxsi shakllanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ish materiallarini tanishish uchun ko'rsatmaslik to'g'risida qaror chiqarishga haqlidir. Voyaga yetmagan sudlanuvchilarga hukm chiqarishda sudlar basharti voyaga yetmagan shaxs shartli hukm qilinsa unga ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'Imagan jazo tayinlansa, voyaga yetmagan shaxsga jamoat tarbiyachisi tayinlash zarurligini muhokama qilishga majbur.

Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan qotillik jinoyatlarini tergov qilishning o'ziga xos jihatni sifatida, har bir tergov harakatini qonunlardan chetga chiqmasdan, dalillar maqbulligiga amal qilgan holda bajarish, tergov harakatlarini imkon qadar hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishdan boshlab, qolgan tergov harakatlarini ham kechiktirmasdan amalga oshirish, avvalam bor hodisa sodir bo'lgan joydan ko'proq dalil to'plash, jinoyat shohidlarini aniqlash, hodisa sodir bo'lgan hududga yaqin joylashgan kuzatuv kameralaridagi tasvirlarni o'rghanish, jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsning himoya huquqlarini ta'minlash, voyaga yetmagan ayblanuvchilarni ruhiyatiga ijobjiy ta'sir etuvchi, voyaga yetmagan shaxs hurmat qiluvchi shaxsni aniqlab, ularni ishda qonuniy vakil sifatida jalb etib, voyaga yetmagan shaxslarni aynan ular ishtirokida so'roq qilish voyaga yetmaganlarni tergov jarayonida to'g'ri ko'rsatma berishlarini ta'minlaydi.

Yuqorida bayon etilganlarga xotima o'rnida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan qotillik jinoyatlarini tergov qilish o'ziga xos jihatlarga ega ekanligi va ushbu holatlarni tergov organlari doim inobatga olishlari zarurligi xulosa qilinadi.